

MAMLAKATIMIZDA ARXITEKTURA-SHAHARSOZLIK SOHA MUTAXASSISLARI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI

Xaitova Laylo Bolikulovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish sohasidagi oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va loyiha qurilish tashkilotlarida kadrlar muammosini samarali hal qilish yo'llari ko'rib chiqilgan. Xuddi shuningdek, maqolada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan qurilish 2021-2022 yillar bo'yicha tahlili keltirilgan. Mualliflar tomonidan qurilish sohasi uchun oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Mamlakatimizda arxitektura-shaharsozlik sohasidagi ishlarning holatini tubdan takomillashtirish maqsadida kuchli hamda yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashning o'ziga xos chora-tadbirlarini tizimli yo'lga qo'yish tadbirlarini amalga oshirib, yuqori cho'qilarni zabt etishdir.

Kalit so'zlar: arxitektura, obyekt, shaharlar, qishloq punktlari, loyiha, posyolka, uyushma, kadrlar, oliy ma'lumotli kadrlar, o'quv jarayoni, bitiruvchi, qurilish sohasi, sifatni oshirish, mutaxassis, loyiha-qurilish tashkiloti.

O'zbekiston Respublikasining jadal rivojlantirish masalasini muvaffaqiyatli hal qilishda qurilish sohasi muhim o'rinlardan birini egallaydi. Buning sabablari nafaqat sohaning iqtisodiyotdagi o'rnida, balki barqaror o'sishni ta'minlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lganligidadir. Bugungi kunda qurilishga safrlangan mablag'lar turdosh sohalarni rivojlantirishga turtki bo'lishini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Qurilish materiallari sanoati, kimyo sanoati, elektrotexnik va kabel ishlab chiqarish sanoati, qurilish mashinasozligi, transport va boshqa tarmoqlar bevosita qurilish ishlab chiqarishi bilan bog'liqdir. Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qurilish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5392, 2018-yil

14-noyabrdagi "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5577- son va 2020- yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizasiya qilish, jadal va innovasion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6119-son Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-416-son,

2019-yil 20-sentyabrdagi “Qurilish sohasiga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarida qurilish sohasidagi tizimli kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Mamlakatimizda qurilish sohasining shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda ushbu soha uchun oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimining ahamiyati katta. Oxirgi yillarda oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida ilg‘or xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining tajribalaridan foydalanib, ularning malakaviy talablari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini o‘quv jarayoniga tadbiriq etilmoqda. Muhtaram yurtboshimizning qarorlari bilan arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini ilg‘or xorijiy tajriba hamda xalqaro standartlar asosida transformasiya qilish, ta‘lim jarayoniga innovasion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish hamda ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o‘zaro integrasiyasini mustahkamlash maqsadida Toshkent arxitektura-qurilish institutini Toshkent arxitektura-qurilish universiteti etib qayta tashkil etish va uni muhandislik, arxitektura, qurilish hamda qurilish materiallari texnologiyalari yo‘nalishlariga ixtisoslashtirish va Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutini Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti etib qayta tashkil etish hamda uni madaniy meros obyektlarini tiklash, dizayn, arxitektura, qurilish, urbanizasiya va muhandislik yo‘nalishlariga ixtisoslashtirish belgilab berildi. Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda turar joylar va ijtimoiy-maishiy obektlar qurilishini rivojlantirish hamda shaharlar va qishloq aholi punktlarining zamonaviy arxitektura qiyofasini shakllantiruvchi shaharsozlik hujjatlari bilan ta'minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar tizimli amalga oshirilmoqda. Buning natijasida bir necha shaharlar va shahar posyolkalari bosh rejalar bilan ta'minlandi, qishloqlar (ovullar) fuqarolar yig‘inlari hududlarni arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalariga ega bo‘ldi. Shaharsozlik sohasidagi ishlarning holatini tubdan takomillashtirish maqsadida «2018-2022 yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta'minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi prezident qarori qabul qilindi. Mamlakatimizda arxitektura-shaharsozlik sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa ham, shu bilan birga yillar davomida saqlanib qolayotgan yoki yangidan yuzaga kelayotgan muammolar yo‘q emas. Soha vakillari ana shu muammolar – kadrlar masalasi, faoliyatni litsenziyalash, shaharsozlik, bosh reja, qurilishlar, buzilishlar va hokazo masalalar yuzaga kelmoqda. Shu jumladan, bugun arxitektura, shaharsozlik yo‘nalishlarida ta'lim sifati past ekani, Samarqand, Jizzax, Farg‘ona, Urganch, Namangandagi OTMlardagi arxitektura, shaharsozlik ta'lim yo‘nalishlarida mutaxassislar yetishmasligi, ayrimlarida umuman yo‘qligini ta’kidlab o‘tish mumkin. Ushbu sohada o‘qishni tamomlab, malakali mutaxassis bo‘lib

yetishgan kadrlar xorijsiga chiqib ketayotgani, mamlakatda qolganlariga esa yetarlicha sharoit va imkoniyatlar, e'tibor berilmayotgani, nafaqat arxitektorlar, balki muhandis-konstruktorlar, dizaynerlar ham unutilib qo'yilayotgan sohalarga aylanganiga guvohi bo'lishimiz mumkin. Umuman olganda, yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash, e'tiborni kuchaytirish lozim. O'zbekiston Arxitektorlar uyushmasi vakili, hozirda uyushma faoliyati qiyin ahvolga tushib qolganini, hatto tayinli binoga, ko'rgazma zaliga, ustaxonasiga ega emasligini, arxitektorlar esa o'zaro bir-biri bilan muloqotda emasligini afsus bilan tilga olib misol tariqasida keltirishimiz mumkin. So'nggi yillarda respublika shaharlarida milliy arxitektura yechimlari, elementlari kamayib borayotgani, yangi loyihalarni arxitektor emas, dizayner qurayotgani, bu borada tanlovlar o'tkazilmasligi, malakali, ko'p yillik tajribaga ega mutaxassislarga esa imkoniyat berilmayotgani, qurilishlarda arxitektor fikri inobatga olinmasligi, maslahat so'ralmasligi o'z boshimchalik hukmron surilayotganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston prezidenti farmoni bilan

2025-yilgacha O'zbekistonning barcha shaharlari va shahar posyolkalarining 25 foizi bosh rejalari bilan tasdiqlanishi kerak. Shu jumladan, ko'p yillardan beri muddati uzayib kelinayotgan shaharlarning bosh rejasini tez orada qabul qilish rejalashtirilganligi, mutasaddilar bu borada ishlar davom etayotgani ta'kidlab o'tilgan. 2021-yil 1-martda Qurilish vazirligi tomonidan «Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat hokimiyatining javobgarligini oshirish hamda davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi prezident qarori loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi. Bung ko'ra, hududlarda davlat arxitektura-shaharsozlik siyosatini yagona davlat organi orqali yuritish, arxitektura yo'nalishidagi vazifalarni samarali va operativ yechish hamda qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, sohaga salohiyatli kadrlarni jalb qilish maqsadida Arxitektura-shaharsozlik departamentlarini, «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK filiallarini tashkil etish nazarda tutilgan edi. Ma'lum bo'lishicha, hujjat loyihasida sohadagi mavjud asosiy muammolarga yechim izlangan, jumladan, arxitektorlar shtatini oshirish, rag'batlantirish mexanizmlari, noqonuniy qurilishlarni to'xtatish masalalari ko'zda tutilgan bo'lib, ammo arxitektura sohasini qurilish sohasidan chiqarib tashlash, tuzilmalarda quruvchi va arxitektor kasblarining darajalarini noto'g'ri belgilash to'g'ri qadam emasligi to'g'risida ta'kidlangan edi. Shuningdek, O'zbekiston yosh arxitektorlar harakatini tashkil etish masalasini ko'radigan bo'lsak, TT Design Lab arxitektura byurosi asoschisi, bugungi kunda Italiyada Yosh arxitektorlar Akademiyasining dizayneri bo'lib faoliyat yuritib kelayotgan vatandoshimiz mazkur harakatning maqsad va vazifalari, zarur manbalari xususida so'z yuritilganda, kelgusida O'zbekiston yosh arxitektorlar harakatini «Yuksalish» umummilliy harakati qoshida ochish tashabbusi ilgari surildi. Hududlarni shaharsozlik jihatidan rejalashtirishga doir ishlab chiqiladigan hujjatlarning quyidagi

darajalari belgilangan hududlarning raqobat ustunliklari va barqaror rivojlanish drayverlarini aniqlab beruvchi O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh sxemasi (keyingi o‘rinlarda — Bosh sxema) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish sxemalari, shuningdek, shaharlar (shaharchalar) va shahar atrofi zonalari integratsiyasi asosida Aglomeratsiyalarni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Shaharlar (shaharchalar) va shahar atrofi zonalari integratsiyasi asosida shaharlarning (shaharchalarning) bosh rejalari, shuningdek, qishloq aholi punktlarining hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalari ishlab chiqilgan. Hududlarning aniq muammolarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan, o‘zida shaharsozlik, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa loyiha yechimlarini mujassamlashtirgan master rejalari yoki batafsil rejalashtirish loyihalari ishlab chiqiladi.

Shu qatorda, qurilish soxasida eski standartlar va me‘yorlar saqlanib kelayotganligini, yangi innovasion yechimlar va loyihalar ustida ishlovchi mutaxassislar tayyorlashga e‘tibor yetishmayotganligi soxaning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bugun qurilish sohasida paradoksal holat vujudga kelganini kuzatishimiz mumkin: bir tomondan oliy ta‘lim muassasalari tomonidan qurilish yo‘nalishlari mutaxassislarini tayyorlash hajmi oshib bormoqda, ikkinchi tomondan esa qurilish tashkilotlarida mutaxassis va boshqaruv kadrlarning tanqisligi yanada kuchaymoqda. Ushbu muammoning yechimi nimada? Bizning fikrimizcha, loyiha-qurilish tashkilotlarida oliy ma‘lumotli kadrlar muammosini samarali yechimi bo‘yicha bir necha yo‘nalishdagi jiddiy harakatlarni talab qiladi. Birinchidan, oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash sifatini sohani rivojlanish tendensiyalari va kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlariga moslashtirishni ta‘minlash zarur. Muammoning keng qamrovligi va murakkabligini hisobga olgan holda bizlar uni bir kunda yoki bitta qaror bilan hal qilish mumkin degan fikrdan yiroqdamiz. Masalani hal qilish uchun ham ishlab chiqarish korxonalarini, ham oliy ta‘lim muassasalari birgalikda qat‘iy choralar ko‘rishlari zarur. Ishlab chiqarishda kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning qondirilmaslik sabablarini aniqlashni personal tarkibini tahlil qilishdan boshlash zarur. Yetakchi qurilish kompaniyalarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ish o‘rinlarining attestatsiyasini o‘tkazish har bir lavozimning kasbiy-malakaviy pasportini yaratishga imkon beradi. Tahlillar natijalari bo‘yicha bugun zarur bo‘ladigan, yaqin kelajakda zarur bo‘ladigan mutaxassislar hamda istiqbolda kadrlar tarkibi aniqlanadi, ya‘ni loyiha-qidiruv va qurilish tashkilotlari rahbarlari kadrlar strategiyasini yaqqol ko‘rishlari zarur. Oliy ta‘lim muassasalarining bu jarayondagi ishtiroki buyurtmachi tashkilotlar bilan birgalikda ish joyining pasportini yaratishning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini aniqlashtirish, shunga mos ravishda bakalavrning malakaviy talablariga o‘zgartirishlar kiritish hamda o‘quv rejalarni ilg‘or xorijiy davlatlar oliy ta‘lim muassasalari hamda kadrlar buyurmachilari bilan hamkorlikda shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Bugungi

kunda oliy ta'lim muassasalari va qurilish tashkilotlari hamkorligining xo'jalik shartnomalari shaklidan foydalanishini qoniqarli deb bo'lmaydi, modomiki bizlarning takliflarimizda ham ilmiy, ham amaliy natijalarni ko'rish mumkin. Ikkinchidan, o'quv-ishlab chiqarish jarayonida o'zaro hamkorlik tamoyillariga rioya qilish, ya'ni ta'lim jarayonida birgalikdagi mas'uliyat tamoyillarini kiritish. Bunda maqsadli kontrakt asosida tashkilot uchun aynan talab qilinadigan yo'nalishda mutaxassis tayyorlash tizimini joriy qilish taklif qilinadi. Agar universitet bitiruvchi kursi talabalarini oldida tashkilotlarning talablari bo'yicha maxsus kurslar asosida aniq lavozimga tayyorlash tizimiga o'tilsa, ishlab chiqarishda kasbiy adaptasiyasi qisqa va oson kechishiga erishish mumkin. Ushbu tizimni joriy etishda vazirlik tomonidan tashkiliy-me'yoriy sharoitlar yaratish uchun barcha zarur choralar ko'riladi. Uchinchidan, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lmish ishchi kadrlarning kasbiymalakaviy tarkibini zamonaviy qurilish kompleksining talablariga moslashtirishda oliy ta'lim muassasalarining ishtirokini kuchaytirish zarur. Oxirgi yillarda ishchi mutaxassisliklar nomlari, soni va kasbiy talablari jadal o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, baland qavatli binolar qurilish texnologiyasi va yangi materiallarning kirib kelishi ishchilardan yangicha ko'nikmalarni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan tashkilotlarda ishchilarning malakasini tasdiqlash tizimini ishlab chiqish, yangi jarayonlarning texnologik xaritalarini ishlab chiqish, ishchilarning razryadlarini belgilash talablarini yangilash kabi masalalarda olimlarning hissasini oshirish lozim bo'ladi. Yuqoridagi takliflar qurilish sohasida kadrlar tayyorlashning eng dolzarb masalalariga taalluqli bo'lib, muammoning faqat ayrim qirralarini ochib bermoqda. Shu bilan birgalikda, tegishli vazirlik va soha mutaxassislaridan fikr bildirilishi so'rab qolinadi va ular tomonidan barcha takliflar jiddiy ko'rib chiqilishiga ishontiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi statistika agentligi. www.stat.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 noyabrdagi "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5577- son Farmoni www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizasiya qilish, jadal va innovasion rivojlantirishning 2021–2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6119-son Farmoni www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-416-son Qarori www.lex.uz
5. 2019 yil 20 sentyabrdagi "Qurilish sohasiga axborot-kommunikasiya

texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori www.lex.uz

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022y.
<https://president.uz/uz/lists/view/5774>

7. Buriyev K. T., & Usmanov I. A. (2021). Organizatsionnyye aspekty realizatsii strategii razvitiya stroitelnoy otrasli Uzbekistana. Nedvijimost: ekonomika, upravleniye, (4), 70–74. <https://doi.org/10.22337/2073-8412-2021-4-70-74>

8. Carnoy M., Froumin I., Leshukov O., Marginson S. Higher education in federal countries. California: SAGE Publications, Inc., 2018. 502 p. DOI: <https://doi.org/10.4135/9789353280734>

9. Musayeva, Sh. "THE ROLE OF MARKETING ACTIVITY CONCEPTS IN THE FIELD OF CONSTRUCTION MARKET SERVICES." Science and innovation 2.A3 (2023): 109-114.

10. Mukhammadiyev, U. A., and U. Ch Khudoykulov. "KNOWLEDGE MANAGEMENT AS A FACTOR PROVIDING COMPETITIVE ADVANTAGE OF HIGHER EDUCATION INSTITUTION." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.6 (2023): 1118- 1124.

11. Buriev, Khakim, Ravshan Kurbanov, and Maruf Rayimov. "PRODUCTION AND TECHNOLOGICAL PROCESSES IN CONSTRUCTION." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.6 (2023): 1521-1525.

12. Sh, Mirzaxadjayeva Sh, and Tashimov U. Kh. "PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF CONSTRUCTION AND OPERATING ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF ECONOMIC MODERNIZATION." International journal of advanced research in education, technology and management 2.5 (2023).